

PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVNING INGLIZ TILINI O'RGATISHDA SO'NGGI YILLARDAGI SAMARDORLIGI TAHLILI

Feruza Odilovna Djabbarova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fakultetlararo chet tillar kafedrasi katta
o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada so'nggi yillardagi ingliz tilini o'qitishda psixolingvistik yondashuvning rivojlanishi va qo'llanilishi o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixolingvistik yondashuv talabalarning leksik va grammatic bilimlarni o'zlashtirish, motivatsiyani oshirish hamda tilni real vaziyatlarda qo'llash qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Yevropa, Osiyo, AQSh va O'zbekiston tajribalari asosida psixolingvistik yondashuvning amaliy qo'llanishi va yangi texnologiyalar bilan integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: psixolingvistik yondashuv, ingliz tili, ta'lim samaradorligi, texnologiyalar, motivatsiya, leksik bilim, grammatic bilim, interaktiv yondashuv.

ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF THE PSYCHOLINGUISTIC APPROACH IN TEACHING ENGLISH IN RECENT YEARS

ABSTRACT

This article examines the development and application of the psycholinguistic approach in teaching English over the past years. Research indicates that the psycholinguistic approach significantly improves students' acquisition of lexical and grammatical knowledge, enhances motivation, and facilitates the practical use of language in real-life situations. Based on experiences from Europe, Asia, the United States, and Uzbekistan, the practical application of the psycholinguistic approach and opportunities for integrating it with new technologies are analyzed.

Keywords: psycholinguistic approach, English language, educational effectiveness, technologies, motivation, lexical knowledge, grammatical knowledge, interactive approach.

KIRISH

So'nggi yillarda ingliz tilini o'qitishda psixolingvistik yondashuv ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan va o'z o'rnnini mustahkamlagan. Psixolingvistika tilni o'rganish jarayonida kognitiv va ruhiy omillarni hisobga olib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Dunyo miqyosida antropotsentrik

yondashuvning rivojlanishi, til va shaxs omilini chuqur o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ushbu yondashuvning dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Psixolingvistik yondashuv, xususan, antropotsentrizm asosida talabalarning individual ehtiyojlariga e’tibor qaratadi va bu orqali ularning til o‘rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Xususan, pragmatik va kognitiv yondashuvlar orqali tilni ijtimoiy jarayonlar bilan birga tahlil qilish yondashuvning amaliy ahamiyatini oshiradi. Ushbu maqolaning maqsadi so‘nggi yillarda ingliz tilini o‘qitishda psixolingvistik yondashuvning rivojlanishini o‘rganish va baholashdan iborat bo‘lib, ushbu maqsadda turli mamlakatlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar, yangi metod va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi, shuningdek, o‘qitish samaradorligini oshirish uchun psixolingvistik usullarni amaliy qo‘llash misollari keltiriladi.

Maqolada tahliliy usul qo‘llanilib, so‘nggi yillarda ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha nashr etilgan ilmiy maqolalar va tadqiqotlar, jumladan mamlakatimiz tadqiqotchi olimlaridan D.Boboxonova [1], H.Davlatova [4], U.Sultanova [14], G.Xolisova [16], R.Bobokalonov [17], M.Qurbanova [18] hamda M.Shamsiyevalarning [19] tadqiqotlari va ularning natijalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, sohaga oid xorijiy adabiyotlar ham tahlilga tortildi. Psixolingvistik yondashuv faqatgina til o‘rgatish bilan cheklanmaydi, balki talabalarning motivatsiyasi, ularning idrok qilish va yodda saqlash qobiliyatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘rganilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, antropotsentrik yondashuv asosida talabalarga yondashish ularning til o‘rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi, bu esa ularni mustaqil va faol talabalarga aylantirishga yordam beradi.

Psixolingvistik yondashuvning amaliy qo‘llanishi, xususan, kognitiv tilshunoslik va pragmatika orqali talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirish imkoniyatini beradi. Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, lingvokognitiv yondashuvlar orqali nutqiy faoliyatni o‘rganish muhim natjalarga erishishga olib kelgan. Shu bilan birga, bu yondashuvning qiyinchiliklari ham mavjud bo‘lib, ularni aniqlash va bartaraf etish kelajakdagি tadqiqotlar uchun muhim vazifa hisoblanadi.

PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVNING ASOSLARI

Psixolingvistika til o‘rganish jarayonida inson miyasidagi psixologik va kognitiv jarayonlarni o‘rganadigan fan hisoblanib, ushbu yondashuv, tilni qanday o‘zlashtirishimiz, qayta ishlashimiz va ishlab chiqishimiz haqida bilim beradi. Psixolingvistika tilni idrok qilish, eslab qolish, va nutq jarayonida qo‘llashda asosiy rol o‘ynaydi. Tilni o‘rganish kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda inson ongi tomonidan tilning sintaksisi, semantikasi va fonologiyasi qayta ishlanadi [5; 8].

Psixolingvistika, shuningdek, tilni qanday qabul qilish, eslab qolish va nutqda qo'llash jarayonlarining zamiridagi kognitiv mexanizmlarni ham o'rganadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi - til o'rganish jarayonida individual farqlarni hisobga olish va talabalar uchun samarali metodlarni aniqlashdir. Masalan, U.Levelt tomonidan ishlab chiqilgan model, nutq ishlab chiqish jarayonida so'zlarni eslab qolish va tanlash mexanizmlarini tushuntiradi. Bu model tilni idrok qilish va amaliy nutqiy faoliyatda qo'llashda katta ahamiyat kasb etadi [12].

Ingliz tilini o'qitishda psixolingvistik yondashuv, talabalarning tilni qanday o'zlashtirishi va qayta ishlashiga e'tibor qaratadi. Psixolingvistik yondashuv talabalarning miyasidagi idrok va yodlash jarayonlarini o'rganib, til o'rganish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi [6]. Ushbu yondashuvda talabalarning lingvistik bilimlarini yaxshilash, ularning ongida tilning tuzilishi va qo'llanishi haqidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar qo'llaniladi. Bu til o'rganuvchilar uchun individual va guruhli mashg'ulotlar orqali tilni o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi [11].

S.Krashen o'z tadqiqotlarida til o'rganishda o'zlashtirishning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. Til o'rganish jarayonida o'zlashtirish jarayonining sezgir ravishda yetkazilishi va bu jarayonda talabaning motivatsiyasini oshirish uchun amaliy faoliyatning rolini ta'kidlagan [10]. Psixolingvistik yondashuv tilni eslab qolish va qo'llashda samaradorlikni oshiradigan qiziqarli va talabalarni faollashtiruvchi mashg'ulotlar orqali o'zlashtirish ko'rsatikichi bilan ishlashni nazarda tutadi.

J.Hulstijn esa til o'rganishda ongsiz va ongli jarayonlarning ahamiyatini ta'kidlagan. Ongli jarayonlar orqali talabalar tilning grammatik qoidalari va so'zlarni tahlil qilishni o'rganadilar, ongsiz jarayonlar esa ular tilni amaliyotda qo'llashda yangi bilimlarni avtomatlashtirishga imkon beradi [8]. Ushbu jarayonlar tilni o'rganishda chuqur tushunishni ta'minlaydi va talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixolingvistik yondashuvning yana bir muhim jihatni til o'rganishda turli kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Talabalarning leksik bilimlarini kengaytirish va ularni nutqiy faoliyatda qo'llash uchun ularga turli kontekstual mashqlar beriladi. Bu mashqlar orqali talabalar yangi so'zlarni kontekstda qanday ishlatilishini o'rganadilar va bu bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar [7].

SO'NGGI YILLARDAGI RIVOJLANISH

Oxirgi yillarda psixolingvistika sohasidagi tadqiqotlar til o'rgatish jarayonidagi kognitiv jarayonlarga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Ushbu tadqiqotlar psixolingvistik yondashuvning til

o'rgatuvchilarga va o'rganuvchilarga ta'sirini tushunishga yordam berdi. Xususan, S.Krashen tomonidan ilgari surilgan *o'zlashtirish gipotezasi* hali ham ko'p tadqiqotlarda asosiy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu gipoteza til o'rgatishda tushunarli o'zlashtirish darajasini taqdim etish til o'rganuvchilarning muvaffaqiyatli natijalariga hissa qo'shadi, deb hisoblanadi [9]. Shuningdek, L.Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi ham til o'rgatishda psixolingvistik yondashuvning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda [15]. Ushbu nazariyaga ko'ra, til o'rgatish jarayonida ijtimoiy muloqot va interaktiv muhitlar kognitiv jarayonlarni rag'batlantiradi. Shuningdek, ta'lim jarayonida muloqot va o'zaro ta'sir talabalar o'rtasidagi madaniy va til bilimlarining shakllanishida muhim o'rinn tutadi.

So'nggi o'n yillikda yangi texnologiyalar ta'lim jarayoniga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual reallikt (VR), sun'iy intellekt (SI), va aralash reallik (AR) kabi texnologiyalar yordamida o'rganuvchilar til o'rganish jarayonida immersiv tajribaga ega bo'lishi mumkin. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bu texnologiyalar talabalarning idrok va eslab qolish qobiliyatlarini faollashtiradi. Masalan, virtual muhitlarda muloqot qilish orqali talabalar o'z bilganlarini tezda qo'llay olishadi, bu esa o'qitish samaradorligini oshiradi [13].

Psixolingvistik yondashuvda innovatsion yondashuvlar ingliz tilini o'qitishda samarali usullardan biri hisoblanib, chet tilini o'rgatishda psixolingvistik yondashuvning yangi pedagogik metodlari talabalarning tilni idrok qilish va yodlash qibiliyatlarini rivojlaniradi. Masalan, *interaktiv o'quv metodlari* talabalarni dars jarayonida faol ishtirokchi sifatida jalb qilish orqali ularning bilim darajasini oshirishga yordam beradi [3]. Ushbu usulda talabalar o'z bilganlarini guruhda muhokama qilish yoki muloqot orqali mustahkamlaydilar, bu esa ularga tilni yanada yaxshi o'zlashtirish imkonini beradi.

Tajribaga asoslangan ta'lim ham so'nggi yillarda samarali metodlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu metoddan talabalar real hayotiy misollar va tajribalar orqali tilni o'zlashtiradilar. Masalan, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarga haqiqiy kontekstda ishslash imkoniyati yaratilganda, ular tilni samaraliroq o'zlashtiradilar [2]

AMALDA QO'LLASH

Psixolingvistik yondashuv ta'lim jarayonida talabalarning leksik va grammatik bilimlarini samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Psixolingvistika tilni idrok qilish, yodlash va undan amaliy foydalanish kabi asosiy kognitiv jarayonlarni boshqaradi. Bu yondashuv yordamida til o'rganuvchilar murakkab leksik birliklarni va grammatik strukturalarni kontekstda qo'llash orqali yaxshiroq eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan,

talabalar bilan ishlataladigan kontekstual mashqlar va simulyatsiyalar leksik birliklarni eslab qolishda samaradorlikni oshiradi. Ular yangi so‘zlarni kontekstual ravishda o‘rganib, real vaziyatlarda qo‘llashni amaliyotda sinab ko‘radilar. Bu esa ularning so‘z boyligini oshirish va grammatik qoidalarni avtomatlashtirishga yordam beradi.

Grammatik bilimlarni o‘zlashtirishda psixolingvistik yondashuv talabalarni “grammar-translation” metodidan uzoqlashtirib, interaktiv va faol ishtirokni talab qiluvchi usullarni qo‘llashni taklif etadi. Bunda talabalar grammatik qoidalarni faqat yodlab qolishdan ko‘ra, ular bilan amaliy mashqlar bajarish va nutqda qo‘llashga ko‘proq urg‘u beradilar. Bu jarayonda tilni o‘zlashtirish uchun mavhum qoidalarni real vaziyatlarga tatbiq qilish orqali grammatik qoidalar samarali mustahkamlanadi. Talabalar shuningdek, o‘zaro muhokamalar orqali grammatik bilimlarini sinab ko‘radilar, bu esa ularning mustaqil fikrlash va grammatikani tushunishda chuqurroq ongli qabul qilish jarayonini rivojlantiradi.

Psixolingvistik yondashuv tilni o‘rganishda motivatsiyani oshirish uchun juda samarali hisoblanadi. Talabalar tilni o‘rganish jarayonida muloqotga asoslangan mashg‘ulotlar, real hayotiy vaziyatlarni taqlid qilish va guruhiy ishlar orqali faollashadilar. Motivatsiyani oshirishda muhim jihatlardan biri talabalarning tilni o‘z hayotiy ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog‘lashidir. Bu jarayonda ular o‘rganayotgan tilni real kontekstda qo‘llash imkoniyatini ko‘rib, o‘quv jarayoniga faolroq jalb qilinadi. Talabalarga tilni amaliyotda qo‘llash imkoniyati yaratib berilsa, bu ularning tilni o‘zlashtirish motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Psixolingvistik yondashuvning yana bir afzalligi, talabalarning bilimlarini idrok qilish orqali o‘zlashtirish imkoniyatini berishdir. Til o‘rganishda sezgi va idrok jarayonlari muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun ushbu yondashuvda maxsus metodlar qo‘llanilib, talabalar yangi bilimlarni o‘z sezgi va qobiliyatlariga asoslanib idrok qilishadi. Bu esa ularning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga va uni amaliyotda qo‘llashiga olib keladi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar til o‘qitish jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari psixolingvistik yondashuv bilan birgalikda qo‘llanilganda, talabalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘qitish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, tilni o‘zlashtirish jarayonida AI asosida ishlab chiqilgan o‘quv platformalari va dasturlar talabalar uchun shaxsiylashtirilgan tajriba yaratishga imkon beradi. Ushbu dasturlar talabalarning bilim darajasini aniqlab, ularga mos mashg‘ulotlar va materiallar taklif etadi. Sun’iy intellekt, shuningdek, talabalarning so‘z boyligini kengaytirish va grammatik qoidalarni avtomatik tarzda tushuntirish imkoniyatini beradi.

VR va AR texnologiyalari til o'rgatish jarayonida yangi imkoniyatlarni ochmoqda. VR texnologiyalari orqali talabalar ingliz tilini o'rganish jarayonida virtual muhitda o'zlarini to'liq tilga singdirishlari mumkin. Masalan, talabalar virtual sayohat yoki virtual muloqotlar orqali real vaziyatlarda tilni qo'llash tajribasini orttiradilar. Bu nafaqat talabalarning tilni eslab qolishini, balki ularning o'rganayotgan bilimlarini real vaziyatlarda qo'llashni ham ta'minlaydi. VR texnologiyalari orqali talabalar o'z bilganlarini qo'llab, amaliyot orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

AR texnologiyalari esa virtual va real muhitni birlashtirib, talabalarga real vaziyatlarda til bilan ishlash imkonini yaratadi. Masalan, AR orqali talabalar real hayotda turli ob'ektlar bilan ishlash va ularga virtual til ma'lumotlarini qo'shish orqali ingliz tilidagi bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bu texnologiyalar talabalarga interaktiv darslar va amaliyotlarni taqdim etib, ularga tilni eslab qolishda va real hayotda qo'llashda qo'shimcha yordam beradi.

Ushbu texnologiyalar psixolingvistik yondashuvning samaradorligini yanada oshiradi, chunki ular talabalarni tilni o'rganishga rag'batlantiradi va bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bu texnologiyalarning o'quv jarayonida qo'llanishi talabalarni nafaqat nazariy bilim olishga, balki amaliy malakalarni mustahkamlashga ham undaydi.

TURLI MINTAQALARDA QO'LLANILISHI

Psixolingvistik yondashuv til o'qitishda samaradorligi sababli ko'plab mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvning turli mintaqalarda qanday qo'llanilayotgani va u yerda qanday natijalarga erishilganini o'rganish muhim bo'lib, Yevropa, Osiyo, AQSh, va Respublikamizdagi tajribalar va natijalar, mintaqalar orasida til o'rganish metodologiyasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi, bu esa ta'lim jarayoniga ijtimoiy-madaniy hamda iqtisodiy omillarning ta'sirini ko'rsatadi.

Yevropada psixolingvistik yondashuv til o'qitishda innovatsion metodlardan biri sifatida keng tarqagan. Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa Skandinaviya va G'arbiy Yevropa davlatlarida, bu yondashuv integratsiyalashgan ta'lim tizimi orqali qo'llaniladi. Maktablarda va universitetlarda psixolingvistik usullar talabalarni tilni idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Misol uchun, Yevropada til o'rganishda interaktiv va multimodal yondashuvlar qo'llanilib, talabalar real hayotiy vaziyatlarda tilni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Talabalar uchun qo'llanilgan bu usullar leksik bilimlarni eslab qolish va grammatik qoidalarni avtomatiklashtirishda sezilarli yutuqlarga olib keldi. Shu bilan birga, Yevropa mamlakatlarida

psixolingvistik yondashuvda ko‘p tillilik va translingvistik o‘qitish prinsiplariga katta e’tibor qaratiladi. Bu mintaqada talabalar o‘zaro turli tillarda muloqot qilish orqali lingvistik diversifikatsiyani mustahkamlashga imkon beruvchi usullar bilan tanishtiriladi. Ushbu yondashuv yordamida talabalarning tilga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi oshganligi qayd etilgan.

AQShda psixolingvistik yondashuv asosida til o‘qitishning asosiy maqsadi til o‘rganuvchilarni mustaqil fikrlashga va ijtimoiy muloqotda faol ishtirok etishga undash bo‘lib, ushbu yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri tilni o‘qitishda faqat grammatik va leksik bilimlarni emas, balki madaniyat va kommunikativ kompetensiyalarni ham o‘rgatishdir. Ta’lim jarayonida multimodal o‘quv usullari keng qo‘llanilib, talabalar multimedya vositalari orqali tilni idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Qo‘shma shtatlarda, ayniqsa, yosh bolalar va bilingval (ikki tilli) o‘quvchilarga psixolingvistik yondashuvni qo‘llash orqali tilni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish maqsad qilingan. Ushbu metod bolalar uchun o‘yinlar, interaktiv mashg‘ulotlar va raqamli ilovalar orqali taqdim etiladi. Natijada, o‘quvchilar til o‘rganish jarayonida nafaqat o‘zlarining lingvistik bilimlarini kengaytiradi, balki madaniyat va ijtimoiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

Osiyoda, xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy kabi mamlakatlarda psixolingvistik yondashuv ingliz tilini o‘rgatishda keng qo‘llaniladi. Bu mamlakatlarda ta’lim jarayoni ko‘p hollarda an'anaviy va testga yo‘naltirilgan bo‘lsada, so‘nggi yillarda psixolingvistik metodlarni qo‘llash orqali talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoxda. Xitoyda, masalan, ingliz tilini o‘rgatishda talabalarni kognitiv jarayonlarini faollashtirish uchun qaratilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan. Psixolingvistik yondashuv orqali talabalarning leksik va grammatik bilimlari yanada mustahkamlanib, ular real vaziyatlarda muloqot qilishga imkon yaratildi. Janubiy Koreyada psixolingvistik yondashuv, xususan, tilni idrok qilish va yodda saqlash jarayonlarini rivojlantirishga asoslangan. Bu mamlakatda multimodal yondashuv va raqamli texnologiyalar yordamida talabalar uchun individual o‘quv tajribasi yaratish maqsadida sun’iy intellekt tizimlari bilan integratsiya qilingan o‘quv platformalari joriy etilgan. Bu orqali talabalar o‘z bilganlarini real hayotiy muhitda qo‘llashga muvaffaq bo‘lishadi.

Yurtimizda so‘nggi yillarda psixolingvistik yondashuvdan foydalanish masalasiga qiziqish oshmoqda. Chet tilini o‘qitish jarayonida, xususan, ingliz tilini o‘rgatishda an'anaviy yondashuvlar hali ham keng tarqalgan bo‘lsa-da, psixolingvistik yondashuvning qo‘llanilishi ham sezilarli darajada kengaymoqda. Mamlakatimizda psixolingvistik yondashuv asosan talabalar motivatsiyasini oshirish va ularda lingvistik

qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ishlatalmoqda. Amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari doirasida, raqamlı texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq loyihalar orqali psixolingvistik yondashuvning samaradorligini oshirishga e’tibor qaratilmoqda. Talabalarga individual ta’lim jarayoni yaratish uchun multimodal va interaktiv mashg‘ulotlar tashkil qilinmoqda. Shuningdek, ingliz tilini o‘rganish jarayonida madaniyatlararo muloqotga katta e’tibor qaratilmoqda, bu esa talabalarining global miqyosda muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, psixolingvistik yondashuvning turli mamlakatlardagi qo‘llanishi va natijalari mintaqalar o‘rtasida ayrim farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Yevropa mamlakatlarida bu yondashuv ko‘p tillilikni rivojlantirish uchun qo‘llanilsa, Osiyoda u an’anaviy yondashuvlardan chekinib, amaliy bilimlarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan. AQShda esa bu yondashuv ko‘p madaniyatli va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida keng tarqalgan. Yurtimizda esa psixolingvistik yondashuvning qo‘llanilishi raqamlı texnologiyalar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali talabalar motivatsiyasini oshirishga qaratilgan.

KELGUSI YO‘NALISHLAR

Kelgusidagi tadqiqotlar psixolingvistik yondashuvni yangi texnologiyalar bilan integratsiya qilishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, sun’iy intellekt yordamida talabalarining o‘zlashish jarayonlarini tahlil qilish va ularga moslashgan ta’lim metodlarini ishlab chiqish mumkin. Shaxsiylashtirilgan o‘quv platformalari yordamida har bir talaba uchun individual o‘quv rejasi ishlab chiqiladi va bu ularning tilni o‘rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

Virtual va aralash reallik texnologiyalari orqali til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va immersiv qilish mumkin. Virtual haqiqat yordamida talabalar tilni amalda qo‘llash uchun virtual sayohatlar yoki muloqot muhitlariga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa til o‘rganish jarayonida chuqurroq idrok qilish va yodda saqlashni ta’minlaydi. Aralash haqiqat esa talabalarga real dunyo bilan virtual elementlarni birlashtirib, tilni o‘rganishda yangi tajribalarni yaratish imkoniyatini beradi.

Kognitiv texnologiyalar va neyron tarmoqlar orqali talabalarining nutq va tilni idrok qilish qobiliyatlarini tahlil qilish ham kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Masalan, neyro-lingvistik tahlil yordamida talabalarining tilni o‘zlashtirish jarayonida qaysi kognitiv jarayonlarning faol ishlayotganini aniqlash va bu asosda o‘quv jarayonini optimallashtirish mumkin. Bu yondashuv yordamida o‘qituvchilar talabalarining qiyinchiliklarini aniqroq tahlil qilib, ularga mos usullarni tanlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, *til o‘rganish uchun gamifikatsiya* (o‘yinli) metodlarini qo‘llash ham psixolingvistik yondashuv bilan

birgalikda samarali natijalar beradi. Talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish uchun o‘yin elementlaridan foydalanish ularning o‘zlashuv jarayonini samarali qiladi. Bu metodlar orqali talabalar stress va qo‘rquv his-tuyg‘ularidan xalos bo‘lib, yanada faol va o‘ziga ishonchli tarzda o‘rganish jarayonida ishtirok etishadi.

Psixolingistik yondashuvning kelajakdagи tadqiqotlari, shuningdek, *tadqiqotlararo hamkorlik* va *madaniyatlararo muloqotga* qaratilgan bo‘lishi mumkin. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalarini solishtirish va ularni birlashtirish orqali psixolingistik yondashuvning global miqyosda ta’lim jarayoniga qo‘sghan hissasini baholash mumkin. Shuningdek, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun bu yondashuvdan foydalanish talabalarga boshqa tillar va madaniyatlarni tushunish, hurmat qilish va o‘zaro muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, psixolingistik yondashuvning kelajakda qo‘llanilishi va tadqiqot yo‘nalishlari ta’lim jarayonini innovatsion va samarador qilishga qaratilgan bo‘lib, yangi texnologiyalar va metodlarni integratsiya qilish orqali talabalar uchun individual, interaktiv va madaniyatlararo tajriba yaratishga yordam beradi.

XULOSA

Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda psixolingistik yondashuvning samaradorligi o‘rganildi va turli mamlakatlarda qo‘llanish amaliyotlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari psixolingistik yondashuvning talabalarning tilni idrok qilish va yodlash qobiliyatlariga sezilarli darajada ijobjiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladik. Yondashuv talabalarning motivatsiyasini oshirish, ularning leksik va grammatik bilimlarni samarali o‘zlashtirish hamda real vaziyatlarda tilni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muvaffaqiyatli bo‘lgan.

Shuningdek, ingliz tili o‘qituvchilari va ta’lim tashkilotchilariga quyidagi amaliy tavsiyalarni tadqim etish lozim, deb hisoblaymiz:

❖ Psixolingistik yondashuv yordamida til o‘rgatish jarayonida talabalarning kognitiv xususiyatlarini hisobga olish va ularga individuallashtirilgan mashg‘ulotlar taqdim etish samaradorlikni oshiradi. Ingliz tili o‘qituvchilari talabalar uchun mos keladigan interaktiv va amaliy mashg‘ulotlar yaratish orqali ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi mumkin.

❖ Sun‘iy intellekt, virtual reallik va boshqa raqamli texnologiyalar til o‘rganish jarayonini qiziqarli va immersiv qilish imkonini beradi. O‘qituvchilarga ushbu texnologiyalarni dars jarayoniga kiritishni tavsiya etiladi, bu orqali talabalar tilni amaliy vaziyatlarda qo‘llash va real hayotiy tajribalar bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

❖ Psixolingvistik yondashuv nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniyatlararo muloqot va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Talabalarga tilni o'rgatishda madaniyatlararo muloqot va tilning ijtimoiy qirralarini yoritish ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshirishga va muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirishga hissa qo'shadi.

❖ Ta'lim tashilotchilari psixolingvistik yondashuvni kengroq joriy etish uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqishda kognitiv va ijtimoiy omillarni hisobga olishlari lozim. Ushbu yondashuv yordamida talabalarining tilni o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklarini engillashtirish va ularga mos metodlarni ishlab chiqish mumkin.

Umuman olganda, psixolingvistik yondashuv ingliz tilini o'qitishda samarali va innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanib, bu yondashuv talabalarining kognitiv va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning motivatsiyasini oshirish va real hayotiy vaziyatlarda tilni amalda qo'llash imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchilari va manfaatdor tomonlarga bu yondashuvni kengroq qo'llash hamda yangi texnologiyalar bilan birga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. Boboxonova D. Psixolingvistika // Ma'ruzalar matni. Namangan davlat universiteti. – 2019. B. 77.
2. Canagarajah, S. (2018). Translingual practice as spatial repertoires: Expanding the paradigm beyond structuralist orientations. *Applied Linguistics*, 39(1), 31-54.
3. Crossley, S. A., Salsbury, T., & McNamara, D. S. (2015). Assessing lexical proficiency using analytic ratings: A case for collocation accuracy. *Applied Linguistics*, 36(5), 570-590.
4. Davlatova H.U. Bolalar nutqi: psixolingvistik xususiyatlari va shakllanish omillari // Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2023.
5. Fodor, J. A. (1983). The modularity of mind. Cambridge, MA: MIT Press.
6. Gernsbacher, M. A. (Ed.). (1994). Handbook of psycholinguistics. San Diego: Academic Press.
7. Harrington, M. (2001). L2 sentence processing. In P. Robinson (Ed.), Cognition and second language instruction (pp. 91–124). Cambridge: Cambridge University Press.
8. Hulstijn, J. H. (2001). Intentional and incidental second-language vocabulary learning: A reappraisal of elaboration, rehearsal, and automaticity. In P. Robinson (Ed.), Cognition and second language instruction (pp. 258–286). Cambridge: Cambridge University Press.
9. Krashen, S. D. (1981). Second language acquisition and second language learning. Oxford, UK: Pergamon Press.

10. Krashen, S. D. (1985). The input hypothesis: Issues and implications. Longman.
11. Levelt, W. J. M. (1989). Speaking: From intention to articulation. Cambridge, MA: MIT Press.
12. Levelt, W. J. M., Roelofs, A., & Meyer, A. S. (1999). A theory of lexical access in speech production. *Behavioral and Brain Sciences*, 22, 1–75.
13. Rieder, A. (2003). Second language vocabulary acquisition from written context: Investigating the role of learners' inferencing strategies. *System*, 31(4), 481-487.
14. Sultonova U.A. Psixolingvistikada adabiy me'yor va uning mazmun mohiyati // Magistrlik dissertatsiyasi. Urganch davlat universiteti. – 2015. Urganch.
15. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
16. Xolisova G.M. Tijoriy matnlarning psixolingvistik tadqiqi // Fil. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2022.
17. Бобокалонов Р.Б. Ўзбекча-французча семантик-функционал шаклланган гапларнинг дифференциацияси ва коммуникатив нейропсихолингвистик тадқиқи. // Фил. фан. док. (DSc) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022.
18. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социон психолингвистик тадқиқи. // Фил. фан. номз. диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2009.
19. Шамсиева М.Б. Билингвал болалар нутқининг психолингвистик тадқиқи. // Фил. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2022.